



## MADONNA IN A FUR MANTLE

**Fotima Ismoilova Izzat qizi**

**UzDSMI**

**"Art studies: dramaturgy of stage and screen art"**

**3rd stage student**

**Abstract:** The following is about the famous Turkish writer Sabahattin Ali's work "Madonna in a Fur Mantle". It also tells about the high skill of the writer, unique findings in the work, mysterious characters, and their sad fate.

**Keywords:** Sabahattin Ali, Maria Puder, Raif Effendi.

### **Mo‘ynali mantodagi Madonna**

Fotima Ismoilova Izzat qizi O‘zDSMI

"San’atshunoslik: sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi"

3-bosqich talabasi +998945850306

**Annotatsiya:** Quyida mashhur turk yozuvchisi Sabahattin Alining "Mo‘ynali mantodagi Madonna" asari haqida so‘z boradi. Shuningdek, yozuvchining yuksak mahorati, asardagi o‘ziga xos topilmalar, sirli qahramonlar, ularning ayanchli taqdiri haqida aytib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sabahattin Ali, Mariya Puder, Raif afandi.

Sabahattin Ali — (25-fevral 1907; Eğridere, Edirne viloyati 2-aprel – 1948, Qırklareli), turk yozuvchisi va shoiri. U o‘zining adabiy shaxsini sotsialistik realistik tekislikka qo‘yib, o‘z hayotida kechinmalarini o‘quvchiga aks ettirdi va o‘zidan keyingi jumhuriyat davridagi turk adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan shaxsga aylandi. U asosan qissalar yozgan bo‘lsa-da, romanlari bilan maydonga chiqdi. U o‘z romanlarida uzoq ta’riflar bilan shug‘ullangan sevgi va sevgi mavzusini vaqtiga vaqtiga bilan siyosiy bahslariga ishora qiluvchi hikoyalar va vaqtiga vaqtiga bilan



ijtimoiy buzilishlarni tanqid qilish bilan qo'llab-quvvatladi. "Kuyucakli Yusuf" (1937), "Ichimdag'i shayton" (1940) va "Mo'yna mantoli Madonna" (1943) romanlari Turkiyadagi adabiy doiralarning olqishiga sazovor bo'ldi va XX - XXI asrlarda ham o'z ta'sirini davom ettirdi.

Mo'yna kiygan Madonna – Sabahattin Alining 1943-yilda nashr etilgan romani. Kitob ta'sirchan sevgi tarixi haqida hikoya qiladi. Roman 1940-yil 18-dekabrdan 1941-yil 8-fevralgacha (nashr qilinmagan kunlar: 1941-yil 8-10, 14-15-yanvar) "Haqiqat jurnali" da "Buyuk hikoya" nomi ostida 48 bob bo'lib, birinchi marta nashr etilgan. Sabahattin Ali ikkinchi marta xizmat qilgan Buyukderedagi chodirda mo'ynali kiyimdag'i Madonnani yozgan va har kuni gazetaga olib chiqishga harakat qilgan. Otdan yiqilib, o'ng bilagini sindirsa ham, qo'lini bankada qizdirilgan suvga solib, yozishda davom etgan. Kitob Turkiyada juda mashhur bo'lgach, teatr va kinoga moslashtirilgan.

"Yetti masalchilar" adabiy jamoasidan Jevdet Kudret Solok, Sabahattin Alining ushbu romani uchun "Muhim odam" nomini o'ylaganini va keyin voz kechganini aytgan. Pertev Naili Boratav esa Sabahattin Alining "Mo'yna kiygan Madonna" romanini dastlab qissa qilib yozganini, "Yigirma sakkiz" deb nom qo'yanini va hikoyaning birinchi sahifasini ko'rsatganini aytgan.

Asar qahramonlari o'ziga xos xarakterga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ular hech ham bir-biriga o'xshamaydi. Uni o'qir ekansiz beixtiyor ularni yaxshi ko'rib qolishingiz yoki nafratlanishingiz ham mumkin. Bunga sabab ularning xarakteri talqinidadir.

Raif afandi : U romanning bosh qahramoni. Otasi Havronlik sovunchi; U Raifni Berlinga sovun biznesini o'rganish uchun yuboradi. U yerda Raif Mariya Puder bilan uchrashadi. Raif afandi roman davomida sokin, vazmin, axloqli odam bo'lib, boshiga musibat tushganda uni boshqalarga ko'rsatmaydi. Biroq bu sukunat ortida ayolga bo'lgan buyuk muhabbat yashiringandir.

Mariya Puder : Raif Mariyani – Mo'ynali kiyimdag'i Madonnani ehtirosli



muhabbat bilan yaxshi ko‘radi va butun umri davomida faqat u bilan birga bo‘lganida ma’naviy tinchlikda yashaydi. Mariya Puder Berlindagi Atlantika deb nomlangan barda qo‘sishq aytadi. U erda ishlagan yillar davomida erkaklar bilan bo‘lgan bilim va tajribasiga asoslanib, u ularning barchasini ishonchsiz deb qaror qiladi. U qancha urinmasin hech kimni seva olmaydigan odam. U hech kimga yaqin bo‘lishni yoqtirmaydi. Raif afandi uni sevib qolganiga ishonib, uning histuyg‘ulariga javob qaytarishga ancha vaqt kerak bo‘ldi. Raif afandi ham, Mariya Puder ham yillar davomida izlagan odamini topdik deb o‘ylab, muhabbatga ishona boshlaydilar.

Rivoyatchi : Raif afandining hamkasbi. U Raif afandi sirini yechishga yordam beruvchi personajdir.

Sabahattin Ali: “Dunyodagi eng sodda, eng baxtsiz va hatto eng ahmoq odamning ham shunday bir ajoyib va murakkab ruhi borki,u insonlarni hayratga soladi!.. Nega buni tushunishdan bunchalik qochishadi, ular inson deb ataydigan narsa eng oson tushunchalardan birku. Tushunish va hukm qilish kerak bo‘lgan narsalar. Biz kimdir deb o‘ylaymizmi?”, – bu kitobni o‘z so‘zлari bilan tushuntiradi. Roman 2016-yilda amerikalik yozuvchilar Maureen Freely va Aleksandr Dou tomonidan "Madonna in a Fur Coat" nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilingan.

Asarda uni bizga hikoya qilib berayotgan yigit Turkiyaning Anqara shahrida yashaydi va asar boshida u bankdagi ishidan haydaladi. So‘ng o‘rtog‘i Hamdining uyiga borib u bilan gaplashadi. Bir kun Hamdi uni ishga joylaydi. Yigitning ish o‘rnini Raif afandi bilan bir xonaga qo‘yishadi. U hech narsaga pinagini buzmaydigan, birovga zarari tegmaydigan, kamgap, zotiljam kasalligiga chalingan qari chol. Shuningdek, bankda hujjatlarni olmon tilidan turk tiliga o‘girib berish bilan shug‘ullanadi. Yigit Hamdining naqadar yaramasligini u Raif afandiga qo‘pol munosabatda bo‘lganligidan bilib oladi. Shundan so‘ng, uning cholga hurmati ortib, uni kuzatishni boshlaydi. U Raif afandi kasal bo‘lib



qolganida 1 hafta ishga chiqmaganligi uchun tarjima qilinishi kerak bo‘lgan hujjatlarni olib, uning uyiga boradi. Undan “nimaga kasal bo‘lib qolganligini” so‘raganida, chol unga “Kechiorgen degan uzoq joyga sayr qilib borgani, dengiz bo‘yida qor yog‘ib sovuqqotgani uchun kasal bo‘lib qolganiniz” aytadi. Yigit u aytgan joyga boradi. U cholning o‘y-fikrlari, hayollarida nima borligini bilishga harakat qiladi. Oradan kunlar o‘tib yana cholning yoniga boradi. Raif afandiga katta qizi Nejla bilan xotini Mehri xonim avvalgidan boshqacha munosabat qilishadi. Xuddi unga achinyotgandek, qayg‘uryotgandek lekin chol bundan ranjiydi. Sababi Raifbeyning butun umri davomida unday qilishmagandi. Mehri xonim kir yuvayotgani uchun erining ishxonasidagi sochig‘ini olib kelib berishini yigitdan iltimos qiladi. Yigit cholning ish stolidan sochiqni, cholni iztiroblari yashiringan daftarni oladi va cholning uyiga otlanadi. Cholning uyiga doktor kelib umid yo‘qligini aytadi. Raif afandi hammani ketkazib yuborib, yigitga daftarni olovga tashlashini aytadi. Lekin yigit o‘sha daftarda cholning iztiroblari, qalbidagi barcha kechinmalarini yozilganligini bilib qoladi va shuning uchun uni olib qolishga harakat qiladi. Chol bilan tortishib nihoyat o‘sha daftarni o‘zida olib qoladi. Uyiga borgach uni o‘qiydi. Raif afandi 10 yillik tarixga qaytishni xohlab, 34 yoshida dardlari ichida yig‘ilib qolganligi, kimga aytishni bilmaganligi uchun shu daftarni yozishga kirishadi. U kimnidir tasodifan ko‘rib qolgan, lekin kimligi noaniq. Chol 19 yoshida urush boshlanib bo‘lgan, o‘rtoqlari urushdan yaralanib yoki vafot etib qaytyotgan vaqt. U ham urushga ketmoqchi bo‘ladi, lekin otasi qarshilik bildiradi. Otasi “o‘qi bironta kollejni topib” degach, Raif rasm chizishga qiziqqanligi uchun nafis san’at kollejiga o‘qishga kiradi. Lekin o‘zi chizgan rasmlarni eng yomonlarini hammaga ko‘rsatadi. Go‘yoki o‘ziga yoqqan rasmlarida uning his-tuyg‘ulari ifodalanganligi uchun boshqalardan yashiradi. Agar kimdir ularni ko‘rib qolsa ham ularni oldidan xuddi qiz bola uyalgandek qochib ketadi. Keyinchalik kollejda o‘qishni ham tashlaydi. So‘ng otasi uni Germaniyagasovun ishlab chiqarish zavodiga ish o‘rganish uchun 2 yilga



jo‘natadi. Raifni bunga qiziqishi yo‘q edi. Lekin otasi unga xatda qaytganingdan keyin fabrikamizni sen boshqarasan deydi. Raifning niyati esa olmon tilini o‘rganish, shu tildagi kitoblarni o‘qish edi. U Berlinda1 yil davomida fabrikada hech narsa o‘rganmasdan shahar kezib, faqat olmon tilini o‘rganib, kitoblar o‘qiydi. U sayr qilayotib bitta ko‘rgazmaga kirib qoladi. U yerda mo‘ynali mantodagi qizni portretini ko‘radi va u qiz Raifni shunchalik maftun qilib qo‘yadiki, uni yonida to qorovul kelib haydamaguncha o‘tiradi. Raif bu chiroyli, mag‘rur qizga oshiq bo‘ladi. Rasmning tagida Mariya Puder avtoportret degan yozuv bo‘ladi. Raif endi har kuni kechgacha ko‘rgazma yopilguncha Mariyaga qarab o‘tiradigan bo‘ladi. Hatto bu qiling‘idan ko‘rgazmadagi rassomlar uni tanib qolishadi. So‘ng yoniga bir qiz keladi. U “siz bu rasmni tagida ko‘p o‘tiribsiz, sizga bu sur’at yoqdimi?” desa, Raif nima deyishni bilmasdan “ha, onamga o‘xshar ekan” deb yolg‘on gapiradi. Qiz ishonmaydi, yigit esa o‘zini g‘alati his qiladi va boshqa ko‘rgazmaga qadam bosmaslikka qaror qiladi. U ovropadan ketishni istab qoladi. Onasiga ketishi haqida xat yozgisi keladi. Lekin onasidan keladigan javob xatini o‘ylabsovun ishlab chiqarishni o‘rganmaganligi uchun ketmaslikka qaror qiladi. Bor e’tiborini sovun ishlab chiqarishni o‘rganishga qaratadi. Fabrikaga boradi, daftariga hatto eng mayda detallarigacha hammasini yozib oladi. Mariya Puder nega hayolidaligi, uni eslamasligi kerakligini tinmay o‘laydi, o‘ziga tanbeh beradi. Bir kuni u mast holda 30 yoshli frau Tideman bilan ko‘ngilxushlik qilgach, qo‘ltiqlashib uyga qaytayotgan paytida mo‘ynali mantodagi qizni ko‘rib qoladi. Qiz ularni ustidan kuladi-yu g‘oyib bo‘ladi. Raif uni qidiradi, lekin topolmaydi. Shunda yana uni o‘ylashni boshlaydi, tushida ko‘radi. Ertasiga balki uni uchratarman degan umid bilan o‘sha ko‘chaga boradi, uchratadi ham. Uni orqasidan kuzatadi. Mariya uni payqamaydi va o‘zi ishlaydigan “Atlantika” degan joyga boradi. Raif ichkarida uni yarim soatdan ortiq izlaydi. Endi umidini uzganida Mariya qo‘sinqaytib sahnaga chiqadi. Raif endi rasmdagidek o‘ziga ishongan, mag‘rur qiznimas, balki ochiq-sochiq



kiyingan, yonidan yigitlar unga tegishib o'tsa ham ularga indamayotgan yengiltabiat qizni ko'radi va undan nafratlanadi. Qiz uni yonidan ham kulib o'tib ketadi. Yigitni yoniga kelib o'tiradi. Raifga qizni ovozi tanish tuyuladi keyin ko'rgazmadagi qizligini eslaydi. Mariya frau Tidemann qarindoshiligi sabab tanishi, u yomon yo'lga kirib ketganligini aytadi. Raif Mariyani uyigacha kuzatadi. Ular Raifning yolg'izligi, chet eldan kelgani haqida gaplashishadi. Ertaga Mariyaning uyi yonida ko'rishishga kelishishadi. Ular birga sayr qilishadi. Mariya erkaklarga ishonchi yo'qligi, do'stlikdan nariga o'tolmasligini aytganidan so'ng ular do'stlikdan boshqa tuyg'uga o'tmasligi haqida kelishishadi. So'ng Mariyani otasi advokatligi, urush vaqtida undan qolgan boylikka tibbiyat bo'yicha o'qiganligi, hamshira bo'lib ishlaganligi, pulni qadrsizlanishi oqibatida mol-mulki yo'q bo'lib ketganligi, pulga muhtojligidan keyin boshqa sohaga o'tishga qaror qilganligi haqida Mariya unga so'zlab beradi. Raif pansionatga borgach, frau Tidemann unga "sen kim bilandir uchrashyapsan" deganida buni rad etadi. Raif Mariyani sevardi va Mariya ham uni sevadi deb o'ylardi. Lekin do'stlikdan boshqa narsaga o'tolishmasdi, va'dalarini buzolishmasdi. Anlantikada birgalikda yangi yil bazmini nishonlagach, Mariyaning uyiga borishadi va birga bo'lishadi. Raif bir muddat yo'q bo'lib, qaytib kelganida uni kasalxonadalogini aniqlaydi. Raifni kech bo'lganligi uchun kirgizishmagach, u tunni shu yerda o'tkazadi. Ertalab Mariyaning o'pkasi shamollaganligini biladi. Mariya 25 kun kasalxonada yotadi Raif esa har doim uning yonida bo'ladi, kitoblar o'qib beradi, 5 kun usiz qanday yashaganini, u haqda o'ylaganini, ertalabgacha kasalxonada uni kutganini aytadi. Oradan vaqt o'tgach Mariya uni sevishini anlab yetadi va "menda ishonch yo'q edi, sen shu ishonchni qaytarding" deydi. Raifga uyidan xat keladi unda "otasi o'lgani, yurtiga qaytishi kerakligi" yoziladi. Buni Mariya bilan gaplashgach, ikkisi ham o'z uylariga qaytishga kelishishadi. Raif vataniga qaytgach, otasining 2 ta fabrikasidan birini pochchasi sotib olganini, pullari qayerdaligini otasi aytishga ulgurmaganini biladi. Raif bilan Mariya xat yozishib



turishadi. Mariya unga “meni chaqirgan paytingda yoningga boraman” degandi lekin Raif 10 yil kutdi hamki u yo‘q. Mariyadan negadir xatlar kelmay qo‘ygan. Raif uning yangi manzilini bilmasdi, shuning uchun uni butunlay yo‘qotadi. Shuningdek, odamlarga bo‘lgan ishonchini ham. Kimdir bilan qayta munosabat qurolmaydi. Hatto uylangach ham xotini, o‘z bolalari begonadek edi. Raif 10 yil o‘tgach ko‘chada frau Tidemann ko‘rib qoladi. Mariyani undan so‘ragach, u 10 yil oldin o‘pka kasalligi vaqtি xomiladorligida tug‘ishi xavfli bo‘lgan payt tug‘ib vafot etganini, frauning yonidagi qizaloq o‘zining qiziliginи biladi. U hatto qizining qo‘lidan tutib mehribonchilik qilolmaganidan, shuncha yil Mariyani bevafo deb ayblab yashaganidan qattiq afsuslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uz.m.wikipedia.org